

Шундай қилиб, бюджет шаффофлиги ахборотни очиш билан чекланмай, уни фуқаролар учун тушунарли форматда тақдим этиш орқали бюджет саводхонлигини ривожлантиради. Бу эса жамоатчилик назоратини кучайтириш ва бюджет қарорларининг сифатини оширишга хизмат қилади.

IQTISODIY TARAQQIYOTNI TA'MINLASHDA AHOLINI MOLIYAVIY SAVODXONLIGI OSHIRISHNING ZARURLIGI VA AHAMIYATI

Tojiyev Javlonbek Rustamovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Jahon tajribasi ko'rsatishicha, mikromoliyalashtirish kambag'allik darajasini qisqartirish, aholining tadbirkorlik qobiliyatini rivojlantirish va kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatini taraqqiy ettirish hamda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning muhim omilidir. Mikromoliyalashtirish hududiy joylashuvi, bozor infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi yoki kredit riski darajasi yuqoriligi tufayli an'anaviy bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmagan jismoniy va yuridik shaxslarga mikromoliyaviy xizmatlar taqdim etishning samarali vositasidir. Mikromoliyalashtirishni rivojlantirish natijasida aholining iqtisodiy faol qismi mikromoliyaviy xizmatlardan foydalangan holda o'zini o'zi band qilishi yoki tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishi orqali tadbirkorlik subyektiga aylanadi.

Qashshoqlik va tengsizlik yuqori bo'lgan mamlakatlarda mikromoliyalashtirish iqtisodiy taraqqiyotni rag'batlantirish va qashshoqlikka qarshi kurashda muhim rol o'ynashi mumkin. Moliyaviy savodxonlikning past darajasi mikromoliyalashtirishning rivojlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin, chunki odamlar har doim ham kreditlash shartlari va xavf-xatarlarni yaxshi tushunishmaydi. Rivojlangan infratuzilma, jumladan, transport, aloqa va energetika chekka hududlardagi tadbirkorlar uchun moliyaviy xizmatlardan foydalanishni osonlashtiradi. Madaniy xususiyatlar va an'analar aholining mikromoliyaviy xizmatlardan foydalanishga bo'lgan munosabatiga ta'sir qilishi mumkin. Yuqori darajadagi ta'lim ko'pincha tadbirkorlikni rag'batlantiradi va mikromoliyalashtirishga talabni oshiradi.

Tadbirkorlar va aholi moliyaviy savodxonligining yetarli emasligi moliyaviy resurslardan, shu jumladan, mikroqarz va mikro kreditlardan foydalanishga to'sqinlik qiladi, bank va mikromoliyaviy tashkilotlar mahsulotlari bozori rivojlanishiga imkon bermaydi. Aholining moliyaviy savodxonlik darajasining oshirilishi ularning mikromoliyaviy xizmatlardan samarali va keng ko'lamda foydalanishga imkon yaratadi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tavsifiga ko'ra, "moliyaviy savodxonlik – bu shaxsiy moliyaviy farovonlikka erishish uchun asosli moliyaviy qarorlar qabul qilish imkonini beruvchi xabardorlik, bilim, ko'nikma, qadriyatlar (hayotiy yo'nalishlar) va xulq-atvor kabi

elementlarning majmuidir”¹⁵⁹. “Ko’pchilik amerikaliklarning moliyaviy savodxonligi baland deb o’ylaydi. Lekin so’rovnoma o’tkazilganda, aholining 50 foizdan ortig’i moliyaviy savodxon emasligi ma’lum bo’lgan”¹⁶⁰.

Xalqaro tashkilotlar ekspertlari tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalariga ko’ra, “dunyoda, shu jumladan, G20 guruhiga a’zo mamlakatlar aholisining aksariyati asosiy moliyaviy mahsulotlar va ushbu mahsulotlar bilan bog’liq risklar yuzasidan yetarli bilimga ega emasligi aniqlangan”¹⁶¹. Shuningdek, “Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a’zo mamlakatlar aholisining 56,8 foizi moliyaviy savodxonlik darajasini aniqlash maqsadida o’tkazilgan so’rovnomalarda minimal ball to’plagan”¹⁶². Xalqaro ekspertlarning fikricha, bugungi kunda aholining moliyaviy savodxonligi darajasini oshirish mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini ta’minlash va barqaror iqtisodiy o’sishga erishishning muhim sharti hisoblanadi. Shu munosabat bilan barcha ta’lim muassasalarida moliyaviy savodxonlik fanlarini o’qitish, ushbu fandan elektpon darslik, videodars, mobil ilova yaratish, Ommaviy axborot vositalarida ushbu mavzuda maxsus eshittirish va ko’rsatuvlarni tashkil qilish, tadbirkorlik subyektlari uchun moliyaviy savodxonlik dasturlarini ishlab chiqish, aholining moliyaviy mahsulotlar, xizmatlar, moliya bozori, uning tapkibiy komponentlari to’g’risidagi ko’nikmalarini shakllantirish, bilim va malakalarini oshirish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda faoliyat ko’rsatayotgan yuzga yaqin mikromoliyaviy tashkilotlarning jami aktivlari 2025-yil 1-iyunda o’tgan yilning mos davriga nisbatan qariyb 1,7 baravarga o’sdi. Bu esa mikromoliyalashtirish sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar aholi va tadbirkorlik subyektlariga ko’rsatilayotgan mikromoliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirishga ijobiy ta’sir ko’rsatmoqda. Biroq, mikromoliyaviy tashkilotlar faoliyatiga nisbatan o’rnatilgan ayrim cheklovlar, shu jumladan jismoniy va yuridik shaxslardan omonatlarni (depozitlarni) jalb etish imkoniyatlarining cheklanganligi mazkur tashkilotlar tomonidan tadbirkorlik subyektlariga keng ko’lamdagi mikromoliyaviy xizmatlarning ko’rsatilishiga to’sqinlik qilmoqda. “Shuningdek yetarli salohiyatga ega bo’lgan mikromoliya tashkilotlarining tijorat banklari darajasiga bosqichma-bosqich “o’sishi” uchun imkoniyatlar mavjud emasligi”¹⁶³ ushbu sohani tartibga soluvchi qonun hujjatlarining qayta ko’rib chiqilishini talab etmoqda, shuningdek mikromoliyaviy tashkilotlarni mikromoliyaviy banklarga va mikromoliyaviy banklarni tijorat banklariga hamda aksincha transformasiya qilishning huquqiy asoslarini takomillashtirish zarur.

¹⁵⁹ Muallif tomondan qo’yilgan savol moliyaviy savodxonlik o’zi nima, u nima uchun dolzarb?

¹⁶⁰ “O’zbekistonda nega kreditlar juda qimmat?” — xalqaro iqtisodchi Qobiljon Isaev bilan suhbat — Daryo Yangiliklari.

¹⁶¹ Шадманов Э., Хасанханова Н. Теоретические основы экономического мышления. Монография. – М.: Lap Lambert Academic Publishing RU, 2020. – С. 64.

¹⁶² Совершенствование национальных стратегий финансового образования. Совместная Публикация председательства Российской Федерации в «Группе двадцати» и ОЭСР. OECD, 2013. – С. 5.

¹⁶³ O’RQ-1026-son 11.02.2025. Mikromoliyalashtirish faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan O’zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo’shimcha va o’zgartirishlar kiritish to’g’risida.

Tadbirkorlik subyektlari va aholining moliyaviy savodxonligini oshirish:

- ta'lim dasturlarini tashkil etish, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy savodxonligi bo'yicha ta'lim dasturlarini, shu jumladan moliyaviy rejalashtirish, moliyaviy menejment va risklarni baholash va samarali boshqarish asoslarini o'qitishni tashkil etish;

- axborot materiallarini ishlab chiqish, mikromoliyalashtirish bo'yicha foydali va xavf-xatarlar, shuningdek, mikrokreditlardan samarali foydalanish bo'yicha maslahatlarni o'z ichiga olgan axborot materiallarini ishlab chiqish va tarqatish;

- konsalting, ya'ni tadbirkorlik subyektlariga mikromoliyaviy mahsulotlarni tanlash va moliyaviy menejment masalalari bo'yicha maslahatlar berishni tashkil etish kerak.

MAHALLALARNI MOLIYALASHTIRISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH YO'LLARI

Dustmirzayev Farxod Bekmirzayevich

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tayanch doktoranti*

Hozirgi kunda O'zbekistonda davlat boshqaruvini markazsizlashtirish va joylarda aholining tashabbusini rag'batlantirishga qaratilgan islohotlar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari – mahallalarning iqtisodiy va moliyaviy salohiyatini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Munitsipal boshqaruv tizimini takomillashtirish orqali mahallalar faqat ijtimoiy-ma'naviy markaz sifatidagina emas, balki hududning iqtisodiy taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim institut sifatida faoliyat yuritishi kerak.

So'nggi yillarda mahalliy byudjetlarning mustaqilligini kuchaytirish, resurslar taqsimotida adolat va samaradorlikni ta'minlash, aholi ishtirokini kengaytirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, mahallalarda iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish sohasidagi tizimli yondashuvlar hali etarlicha shakllanmagan. Bu esa mahallalarning o'z daromad manbalarini shakllantirishda, investitsiyalarni jalb etishda va xizmatlar ko'rsatish samaradorligini oshirishda muayyan cheklanishlarga sabab bo'lmoqda.

Munitsipal boshqaruv tizimini rivojlantirishdagi asosiy risklardan biri — mahalliy hokimiyatlar moliyaviy mustaqilligining cheklanganligi va resurslar taqsimotida yuqoridagi boshqaruv organlariga qaramlik holatining saqlanib qolishi hisoblanadi. Shu bilan birga, aholi ehtiyojlarini joylarda aniqlash, hududiy imkoniyatlardan samarali foydalanish, mahalla tashabbuslarini iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash kabi sohalarda katta imkoniyatlar mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.12.2023 yildagi PQ-402-son O'zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo'lga qo'yish va mahallalarda